

TABAQALASHTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

D.Sh.Elmurodovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun differensial ta'lim texnologiyalardan foydalanishning chora tadbirlari haqida keltirilgan

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о мерах по использованию дифференцированных образовательных технологий для развития речевой компетенции у младших школьников

ANNOTATION

This article describes the measures of the use of differential educational technologies for the development of speech competence in primary school students

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-

metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berildi. O'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlash, tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish ona tili ta'limi oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar.

KIRISH

Ta'lim mazmuni va maqsadi masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va ayni vaqtda eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Chunki insonlar rivojlanishning hamma davrlarida ham nimani o'qitish haqida o'ylanib kelgan va bu jarayon davom etib kelmoqda. Ta'lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. I. Ya. Lerner va M. N. Skatkin kabi ayrim olimlar ta'lim mazmuni deganda o'rganish uchun tanlangan va o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida tushunsa, boshqa bir guruh olimlar bu tushuncha bilan birga uni o'rganish usullarini ham anglaydi. Respublikamizda ham ona tili o'qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslandi, tayanch kompetensiyalar negizida har bir fanga doir alohida kompetensiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi.

O'zbek tili faniga doir esa nutqiy va lingvistik kompetensiyalar tanlandi, tilning barcha sathlarni o'qitish shu ikki mezonga asoslandi. O'quvchilarning ona tilidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash tizimlariga moslash, shu talablar asosida o'qitish yo'lga qo'yilmoqda. Ona tili ta'limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilarda nutqiy hamda lingvistik kompetensiyalarni, xususan, adabiy talaffuz ko'nikmasini to'la shakllantirish, so'z boyligining oshishiga zamin yaratish va mustaqil fikrlashga

o'rgatish uchun o'quv topshiriqlarni takomillashtirish zarurati mavjud. Ona tili o'qitish metodikasida keyingi yillarda bir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, ona tili ta'limini zamonaviylashtirish, o'quv materiallarini takomillashtirish, o'quv lug'atchiligi ustida ishlashga doir B.Mengliev, B.Bahriddinova, Sh.Hamroeva, O'.Xolyorov, G'.Hamroev, Sh. Yuldasheva kabilar qator ilmiy metodik tadqiqotlar olib borgan. Biroq zamon shiddat bilan rivojlanayotgan ayni paytda yaratilgan darslik, metodik qo'llanma va metodik tavsiyalarda o'quv topshiriqlari mazmunini takomillashtirish, zamonaviylashtirishni taqozo qilmoqda. Boshlang'ich sinflarda o'quv topshiriqlari o'quvchi va talabalarda nutqiy kompetensiyani to'la shakllantira olmayapti. Uzlüksiz ta'lim tizimida o'zbek tilini ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda o'qitilishi bilan bog'liq monografik tadqiqotlar X.Muhitdinova tomonidan tizimli ravishda olib borilganiga guvoh bo'lish mumkin. Ta'kidlash lozimki, mazkur tadqiqotda o'zbek tilini, asosan, rus guruhlarida o'qitishda dastur va darsliklar mazmunidagi uzluksizlik masalasiga asosiy e'tiborini qaratilgan. H.Mirzohidova qardosh tillarga taqqoslab tushuntirishning qulayliklari haqida fikr yuritadi. Inson hayotida nutq va tafakkurning o'rni va roli hamda mustaqil fikrlash madaniyati va u bilan bog'liq bilish jarayonini faollashtirish muammosi Kaykovus, Forobiy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar asarlarida o'z ifodasini topgan. Til ta'limida mustaqil ishlar, lug'at ustida ishlash, nutq o'stirish Y.Abdullaev, Q.Abdullaeva, K.Qosimova, M.Asqarova, T.Niyazmetova, S.Matchonov, R.Safarova, A.Hamroev kabi pedagog olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ta'limning turli bosqichlarida nutq madaniyatini shakllantirish, nutqiy faoliyat masalalari MDH davlatlarining K.E.Bezukladnikov, T.G.Ramzaeva, T.P.Malyavina, L.V.Abakumova, N.F.Titova, A.F.Boysova, Ta'lim va innovasion tadqiqotlar I.A.Zimnyaya, A.S.Egorova, V.K.Buryak, A.N.Vasileva, V.V.Gerbova, L.S.Vigotskiy, G.N.Pristupa, T.I.Shamova, N.G.Dmitruk, I.G.Kalinina, T.A.Ladijenskaya, P.A.Grushnikov kabi olimlari tomonidan turli darajada o'rganilgan. Biroq, boshlang'ich sinflarda o'quv lug'atlari orqali nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalasi alohida o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotda esa ona tili

darslarida samarali foydalanish lozim bo'lgan o'quv lug'atlari va ulardan foydalanish usullari o'rganiladi. Tadqiqotda o'quv lug'at turlaridan foydalanishning usul va vositalarini takomillashtirish, o'quvchilarda bugungi kunda dolzarb bo'lib borayotgan adabiy talaffuz ko'nikmalarini, imloviy savodxonlikni rivojlantirish, so'z boyligini oshirish metodikasiga doir masalalar o'rganilgan. Bugungi kunda: boshlang'ich sinflarda o'quv lug'atlaridan foydalanishning bugungi ahvolini o'rganish; boshlang'ich sinf "Ona tili" darsliklardagi o'quv topshiriqlarining DTS va o'quv dasturi talablariga mosligini qiyosiy o'rganish, shuningdek, ularda o'quv lug'atlardan foydalanish bilan bog'liq muammolarning sabablarini aniqlash va echimlarini topishga harakat qilish; nutqiy kompetensiyani rivojlaniruvchi topshiriqlar bog'langan o'quv lug'atlarining mazmun, usul, vositalarini ishlab chiqishni takomillashtirish; turli uslubdagi matnlarni tahlil qilishda o'quv lug'atlaridan foydalangan holda o'qish savodxonligini oshiruvchi topshiriqlar ishlab chiqish, ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda qanday metod, usul va texnologiyalardan foydalanish muhimligini aniqlash eng muhim masalalardan hisoblanadi. Shu o'rinda H.Bakievaning boshlang'ich sinflarda o'quv lug'atlaridan foydalanish haqidagi mulohazasi, yondashuvini keltirish lozim: "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv lug'atlari bilan ishlash orqali nutqiy malakalarni rivojlantirish" mavzusidagi tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim tizimining ona tili ta'limi jarayoniga tatbiq etiladi. Kuzatishlar boshlang'ich sinflarning ona tili darsliklariga kiritiladigan mashq materiallarini quyidagi mezonlar asosida tanlash ijobiy natijalar berishini ko'rsatdi: -mashq materiallarining bog'lanishli matn xarakterida bo'lishi; -o'rganilayotgan til bilimini o'zlashtirishni ta'minlashi va mustahkamlashi; - o'quvchilar hayoti bilan bog'liq va yoshiga mos bo'lishi; - davr taraqqiyotini o'zida aks etirishi; - ta'limning shu bosqichida o'qitiladigan fanlar bilan bog'lanishi." Shuningdek, H.Bakieva muammo yuzasidan olib borilgan kuzatishlar o'qituvchilarning dars rejasi va konspektlarida mashq shartlarini bajarishdan nariga o'tilmayotganligi, ma'nosi izohlanadigan so'zlar izohi aks etmayotganligi, savol topshiriqlarda so'zlarning ma'no qirralari ustida ishlashga e'tibor berilmayotganligini ham o'rinli ta'kidlaydi. Shu ma'noda boshlang'ich

sinflarda o'quv lug'atlari bilan ishlash orqali nutqiy malakalarni rivojlantirish vazifasiga alohida e'tibor berish, maktab o'quvchilari, xususan, boshlang'ich sinflar uchun "Imlo", "Talaffuz" va o'quv izohli lug'atlar yaratish, ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari bugungi ona tili o'qitish metodikasining asosiy qismini tashkil qilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda o'quvchi xoh ona tili, xoh chet tili bo'lsin lug'atlar bilan ishlamasa, ularning nutqida tafakkurida ijobiy o'zgarish bo'lmaydi, zero muloqot, suhbat jarayonlarida yoki mutolaa vaqtida notanish so'zlarning uchrab qolishi o'rganilayotgan matnning mazmunini to'la anglashga imkon bermaydi. Qolaversa, o'quvchining gapirish (adabiy talaffuz), yozish (imlo) ko'nikmalarini rivojlantirishda ham o'quv lug'atlari katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim uchun tayyorlanadigan o'quv metodik ta'minot sirasida, albatta, o'quv lug'atlari, xususan, imlo, talaffuz va izohli lug'atlarning bo'lishi ko'zda tutilayotga nutqiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi asosiy ta'limi vosita hisoblanadi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, o'quv lug'atlarini yaratishda multimediya, illyustrasiyalardan foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. Ta'lim va innovation tadqiqotlar (2021 yil №4) ISSN 2181-1709 (P) 260 Education and innovative research 2021 y. №4 –14-b.
2. Muhiddinova X. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. Ped. fan. nom-di diss. TDPI –Toshkent, 2011. -270 b
3. Mirzohidova H. O'zbek maktablarida fonetikasi qirg'iz tiliga qiyoslab o'rganish: ped. fan. nom-di diss. TDPI – Toshkent, 1998. -143 b. 4. Bakieva H. boshlang'ich sinf

o'quvchilarida mustaqil ta'lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha fal.d-ri(PhD) diss.

4. Сарвиноз, З. (2023). способы определения лидерских способностей учащихся классными руководителями. Международный журнал исследований и разработок EPRA (IJRD), 8(4), 203-206.

5. Зиёдуллаева Сарвиноз Шамсиддин қизи. Лидерлик муаммосининг илмий-назарий асослари. Belarus-o'zbek ilmiy-metodik jurnal.Toshkent.-2023.№6.-B.77-78.

6. Ziyodullayeva S. Sh. Liderlik muammosining aspektlari// Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnal.Toshkent.-2023.-№ 6. -B.102-103. (13.00.00; №17)

7. Ziyodullayeva S. Sh. Liderlik faoliyatining o'ziga hos xususiyatlari.// Pedagogik mahorat. Buxoro.-2024.№2.-B.155-158. (13.00.00; №23)

8. Ziyodullayeva S.Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yetakchilik nazariyasining shakllanishi //Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирий. Nukus.-2023.№6. -B.114-115. (13.00.00; №20)

9. Ziyodullayeva S.Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining liderlik fazilatlari ustuvorligining shakllanishi. Interpretation and researches.Farg'ona.-2024.13(35).-B.109-113.